

FUQAROLIK JAMIYATI TARAQQIYOTIDA TOLERANTLIK MADANIYATINING O‘RNI

*TATU Farg‘ona filiali “Axborot ta’lim texnologiyalari”
Kafedrasi dotsenti Qodirov Xasanboy Oribjonovich
TATU Farg‘ona filiali talabasi
Nurmuxammedov Ma’rufjon Najimidin o‘g‘li*

O‘zbekistonning milliy – madaniy xilma-xilligi milliy o‘zlikni anglashning o‘sishi va ma’naviy-ruhiy tiklanish bilan qo‘shilib, jamiyatning yangilanishiga, uning tolerantligiga qudratli turtki bo‘ldi. Bu esa respublikaning jahon hamjamiyatiga qo‘shilishi uchun qulay sharoit yaratdi.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirish uchun kishilar umummaqsad yo‘lida birlashishlari lozim. Turli etnik, diniy, siyosiy va boshqa yo‘nalishdagi ijtimoiy guruhlarining konstruktiv aloqasiga-tolerant axloqli shaxslar tajribasi orqali erishish mumkin. Tolerantlik lotincha “tolerantiya” so‘zidan olingan bo‘lib, chidam, chidamlilik, toqat qilish, keng fellik, bag‘rikenglik degan ma’noni anglatadi. Tolerantlik millatlararo, davlatlararo, shaxslararo, guruhlararo, shaxs-davlat, ijtimoiy guruhlar va davlat kabi munosabatlarning ma’naviy-madaniy saviyasini belgilab beruvchi muhim kategoriyadir. Bag‘rikenglik dunyodagi turli madaniyatlarni, o‘zini ifodalash va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to‘g‘ri tushunishni anglatadi. Tolerantlik har bir muayyan insonni, uning fikri, nuqtai-nazarini, har qanday boshqa madaniyat, dunyoqarashni, ehtiqodni qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilishga hozirlikdir. Bu bir-biriga o‘xshamagan insonlarning birga ahillikda yashashga intilishi, boshqa kishilar fikri va xatti-harakatiga nisbatan ijobiy holatda bo‘lishidir. Tolerantlik barcha sohalarga singib ketgan, chunki hayotda yoki jamiyatda faoliyat olib borishda inson ijtimoiy voqelikni har doim inobatga olishi kerak.

O‘zbekistonda mustaqillikka erishilgan davrlarda turli jabhalarda rivojlanib, barqarorlashib borayotgan hayot tarzi o‘ziga xos tolerantlik yo‘nalishlari va ularni milliy ongda shakllantirish vazifalari amalga oshirilishiga asos bo‘ldi. Bu jarayon milliy o‘zlikni anglash, milliy madaniyat, millat kelajagi bo‘lgan yoshlar ongida milliylashuv yo‘nalishining tarkib topishi bilan bog‘liq. Chunki yoshlarimizning milliy o‘zligini anglashi ajdodlarimizdan qolgan moddiy va ma’naviy merosni, urf-odatlar, an’analar, qadriyatlarni o‘zlashtirish bilan birga, ularda milliy manfaatlarni, Vatan taqdiri va mamlakatning har tomonlama taraqqiyoti uchun mas’ullik tuyg‘ulari mustahkamlanishini ta’minlaydi.

O‘rta Osiyo, jumladan O‘zbekiston xalqlari mentalitetiga xos bo‘lgan tolerantlikning tarixiy-ma’naviy negizlarini Prezidentimiz I.Karimov quyidagicha

ta'riflaydi: “ming yillar mobaynida Markaziy Osiyo g'oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan va tinch-totuv yashagan markaz bo'lib keldi. Etnik sabr-toqat, bag'rikenglik hayot bo'ronlaridan omon qolish va rivojlanish uchun zarur tabiiy me'yorlarga aylandi...”¹.

Tolerantlik milliy-madaniy aloqalarning samaradorligini oshiruvchi vositadir. Albatta, o'zga madaniyatlar, ma'naviy qadriyatlar bizning an'anaviy qadriyatlarimizga zid mohiyatga ega bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham ularning ba'zi jihatlari bizga yoqmasligi mumkin. Lekin, ular o'zgalarning, shu jumladan bizning mafaatlارimizga ziyon yetkazmasa, ularning mavjudligiga e'tiroz bildirmasdan, mohiyatini to'g'ri tushunishga intilish tolerantlik ifodasidir. O'zga madaniyatlar qadriyatlarini idrok qilish, mohiyatini tushunib, tahlil qilish, qadriyatlar tizimini o'zlashtirish shaxs va millatning ma'naviy saviyasini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Hozirgi axborotlashtirish jarayonlarida tolerantlik muammosi madaniy ta'sir o'tkazish, madaniy ekspansiyaga yo'l qo'yish muammosiga aylanmoqda. Bu siyosiy Iroda, siyosiy va harbiy xatti-harakatlar bilan bog'lanadi. Madaniy tolerantlik madaniy qiziqqonlikka ziddir. Madaniy kelishmovchilik, nizo holatidagi millatlar o'rtasida tolerant munosabatlar o'rnatish imkoniyati, basharti u ichki ong darajasida shakllantirilgandagina oydinlashadi. Bu holda tolerantlik madaniyatning hayotiy dunyosi, o'zining voqeligiga xosligi masalasiga aylanadi. Ya'ni, madaniy tolerantlikning o'zi tolerantlik me'yoridir.

Bugungi kunda xalqimizning aqliy boyliklarini, jahon fani va madaniyatining eng yaxshi yutuqlarini o'ziga singdirib olgan yangi avlodni kamol toptirish kerak bo'ladi. Zero, I.A.Karimov o'zining “yuksak ma'naviyat yengilmas kuch” asarida ta'kidlaganidek: “biz bugungi yoshlarimizning ma'naviy olamida bo'shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzini milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat va ehtirom tuyg'usini bolalik paytidan boshlab shakllantirmog'imiz zarur”. Buning uchun yoshlarimizni axloqan pok, mahnan etuk, ruhan xushyor, jonkuyar hamda bag'rikeng etib tarbiyalashimiz kerak. Chunki mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega bo'lgan bugungi vaziyatda inson sinovlardan o'tgan hayotiy-milliy qadriyatlarga, sog'lom dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, har xil ma'naviy tahdidning ta'siriga berilishi mumkin. Tolerantlik ruhida tarbiyalangan yoshlar bugungi mafkuraviy globallashgan jamiyatda, “ommaviy madaniyat”lar globallashuvi jarayonida o'zlarining ma'naviy yuksakligi, insoniy qadr-qimmatni yuqori bosqichga qo'yishlari bilan ham o'zlarini

1 Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари //Ўзбекистон буюк келажак сари. –Т.: Ўзбекистон, 1998.-530 б.

ma'naviy taxdidlardan himoya qiladilar. Chunki, kibernetikaning asoschisi Noybert Viner aytganidek: "haqiqiy yashash, bu – to'g'ri axborot olib yashashdir".

Har bir inson o'zining shaxsiy, o'ziga xos munosabat doirasiga ega. Shu boisdan har bir insonning o'z shaxsiy realligi bo'ladi. Narsalar voqealar haqida o'z fikri, o'z nuqtai-nazari bor. Bu esa tolerant, ya'ni sabr-toqatli bo'lish, boshqa odamlar ham o'z realligiga, o'z fikriga, o'z nuqtai-nazariga ega bo'lishini tan olishga olib keladi. Ammo bu boshqa realliklar hech bir e'tirozsiz qabul qilinishi zarur degan fikrni anglatmaydi. O'z realligini, o'z dunyoqarashini, o'z fikrini kuch bilan o'tkazishga harakat qiladigan, inson xuquqlarini inkor etadigan, demokratiya qoidalarini tan olmaydigan kishilarga nisbatan tolerant bo'lish mumkin emas. Zero, sabr-toqatsiz odamning o'ziga nisbatan sabrli bo'lishlarini talab qilishga xaqqi yo'q.

Bag'rikeng inson boshqalar fikrini hurmat qiladi, o'zining to'g'ri ekanligini doimo isbotlamaydi. Agar kim sabr-toqatlikka o'rganmagan, tolerantlik nima ekanligini his etmagan bo'lsa, o'z fikrida qat'iy turaveradi. Oxir-oqibatda u hamisha o'z fikrini, o'z pozitsiyasini shaxslararo munosabatlarda o'tkazishga harakat qiladi. Tolerantlik-bu avvalo ichki pozitsiyani namoyon etishdir. Unga ko'ra, boshqa odam ham xudi sen o'zing singari huquqqa, ya'ni o'z fikri, o'z e'tiqodi to'g'ri degan qarashga ega bo'lishga xaqlidir. Binobarin nechog'lik mustahkam e'tiqodga asoslangan bo'lishiga qaramasdan, har qanday shaxsiy fikr muayyan darajada nisbiydir. Demak, tolerantlik bu dunyoda boshqa qarashlar, boshqa e'tiqodlar va boshqa odamlar ham mavjud ekanligini tan olish demakdir.

O'zbek xalqining umum mental qiyofasidagi sezilarli jihatlardan hisoblangan sabrlilik bilan bir qatorda yaxshi niyat ham mavjuddir. Yaxshi niyat hayotga ishtiyoqni (stimulni) tiklashda, insoniy salohiyatning ishga solinmagan imkoniyatlarini yuzaga chiqishida harakatlantiruvchi interaktiv quvvatdir. Balki shuning uchun ham o'zbek mentalitetida taqlidchilik kayfiyati kuchlidir. Bu xususiyatdan milliy tarbiya usullarida ham keng foydalaniladi. Ibrat sifatida, namuna sifatida kimnidir misol qilish milliy tarbiyada qadimdan shakllanib kelgan. Obod-axloq sohasida, ilm-ma'rifatda, kimgadir savob qilishda taqlid xarakterini shakllantirish tarbiyada samarali usullarni bergan. Bundan kelib chiqadiki, sog'lom taqlid boshqalardagi barcha ijobiy sifatlarni bag'rikenglik bilan qabul qilishni ham anglatadi.

Jamiyatimizda tarbiyalanayotgan insonda axloqiy soflik, ma'naviy boylik, jismoniy barkamollik uyg'unlashib ketmog'i lozim, shundagina bag'rikenglik namoyon bo'ladi.